

INTERNETDA AXBOROT FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDA XALQARO STANDARTLARNI MILLIY QONUNCHILIKKA IMPLEMENTATSIYA QILISH MASALALARI

Muhiddinova Shahrizoda Sharofiddin qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
shahrizodamuhiddinova15@gmail.com

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada internetda axborot faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi xalqaro standartlar va ularni O'zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalari o'rganilgan. Tadqiqot BMT, YUNESKO, Yevropa Ittifoqi va Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan asosiy hujjatlar tahlili asosida amalga oshirilgan. Implementatsiya jarayonidagi huquqiy, texnik va institutsional muammolar aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasining axborot sohasidagi amaldagi qonunchilik bazasi xalqaro me'yorlar nuqtai nazaridan baholangan va takomillashtirish yo'nalishlari belgilangan.

Kalit so'zlar: axborot faoliyati, xalqaro standartlar, implementatsiya, milliy qonunchilik, internet huquqi, raqamli suverenitet, kiberjurisdiksiya, ma'lumotlarni himoya qilish, GDPR, axborot xavfsizligi.

АННОТАЦИЯ. В данной статье исследуются международные стандарты в области правового регулирования информационной деятельности в интернете и вопросы их имплементации в национальное законодательство Узбекистана. Исследование проводится на основе анализа ключевых документов ООН, ЮНЕСКО, Совета Европы и Международного союза электросвязи. Выявлены правовые, технические и институциональные проблемы в процессе имплементации, разработаны практические рекомендации. В статье дана оценка действующей законодательной базы Республики Узбекистан в информационной сфере с точки зрения международных норм и определены направления совершенствования.

Ключевые слова: информационная деятельность, международные стандарты, имплементация, национальное законодательство, интернет-право, цифровой суверенитет, кибюрисдикция, защита данных, GDPR, информационная безопасность.

ABSTRACT. This article examines international standards in the legal regulation of information activities on the Internet and issues of their implementation into the national legislation of Uzbekistan. The study is conducted on the basis of an analysis of key documents of the UN, UNESCO, the Council of Europe and the International Telecommunication Union. Legal, technical and institutional problems in

the implementation process are identified, and practical recommendations are developed. The article assesses the current legislative framework of the Republic of Uzbekistan in the information sphere from the perspective of international norms and identifies directions for improvement.

Keywords: information activity, international standards, implementation, national legislation, internet law, digital sovereignty, cyber jurisdiction, data protection, GDPR, information security.

Kirish

XXI asrda internet global axborot makoniga aylangan bo'lib, u nafaqat muloqot vositasi, balki iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va huquq sohasida muhim omilga aylangan. Axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi bilan birga, internet orqali amalga oshiriladigan axborot faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati ham ortib bormoqda. Xalqaro hamjamiyat bu borada bir qator muhim hujjatlarni qabul qilgan: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasi¹, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 19-moddasi², Yevropa Parlamenti va Kengashining 2016/679-son Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR)³ shular jumlasidandir. Biroq ushbu standartlarning milliy qonunchilikka samarali implementatsiya qilinishi muammoli masala bo'lib qolmoqda. O'zbekiston ham axborot huquqi sohasida sezilarli islohotlar amalga oshirmoqda. 2022-yilda qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun, 2026-yil 10-martda "2026-2030-yillarga mo'jallangan kibervafsiizlik strategiyasi" va 2024-yilda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar - bular milliy qonunchilikning rivojlanish tendentsiyasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga to'liq mos kelish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Maqsad xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, mavjud muammolarni aniqlash va amaliy tavsiyalar berish. Uning uchun bir qancha vazifalarni o'z oldiga qo'yishimiz kerak. Internetda axborot faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro standartlarni tasniflab o'rganish, implementatsiya jarayonining huquqiy mexanizmlarini tahlil qilish, O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro me'yorlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

¹Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasi, 217 A (III)-son qaror, 1948-yil 10-dekabr. Murojaat: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml

² Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. BMT Bosh Assambleyasi, 2200 A (XXI)-son qaror, 1966-yil 16-dekabr. Kuchga kirgan: 1976-yil 23-mart.

³ Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data (GDPR). Official Journal of the European Union, L 119, 4 May 2016. Pp. 1-88.

Internetda axborot faoliyatini huquqiy tartibga solish masalasi xorij va mahalliy olimlar tomonidan turli aspektlarda o'rganilgan. Biroq xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiyasi, xususan O'zbekiston misolida, yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Goldsmith va Wu⁴ o'zlarining fundamental asarida internet tartibga solishning global muammolarini o'rganib, hududiy yurisdiksiya modelining cheklovlarini ko'rsatgan. Ularning asosiy tezisi shundan iboratki, internet "hududsiz" bo'lib ko'rinsa-da, davlatlar undan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga olish imkoniyatiga ega.

Drezner⁵ xalqaro internet boshqaruvi sohasida "klub modelini" taklif qilib, ko'p tomonlama hamkorlikning samaradorligini asoslagan. Uning yondashuvi, ayniqsa, kichik va rivojlanayotgan davlatlar uchun standartlarni qabul qilishda amaliy qo'llanmaga aylanib qolmoqda.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Toshmatov⁶ axborot huquqining O'zbekistondagi rivojlanish tarixi va muammolarini, Karimov esa kiberyuridiksiya va raqamli suverenitet masalalarini o'rgangan. Ushbu tadqiqotlar muhim, lekin xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil yetarlicha amalga oshirilmagan.

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki: birinchidan, xalqaro standartlarning implementatsiyasi ko'p o'lchamli jarayon bo'lib, huquqiy, texnik va siyosiy omillarni qamraydi; ikkinchidan, rivojlanayotgan davlatlar uchun maxsus implementatsiya modellarini ishlab chiqish zarurati mavjud; uchinchidan, O'zbekiston misolida bunday tadqiqot yangilik hisoblanadi.

Tadqiqot metadalogiyasi

Qiyosiy-huquqiy tahlil metodi - xalqaro standartlar va O'zbekiston qonunchiligi normalarini solishtirish, o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash uchun qo'llanilgan. Bu metod yordamida GDPR, Budapesht konvensiyasi va milliy qonunchilik o'rtasidagi normativ munosabatlar o'rganilgan.

Tizimli tahlil metodi - axborot huquqini yaxlit tizim sifatida ko'rib, uning tarkibiy elementlari (sub'ektlar, ob'ektlar, normalar, mexanizmlar) o'rtasidagi aloqalarni o'rganish uchun foydalanilgan.

Formal-huquqiy metod - xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarni normativ mazmun nuqtai nazaridan tahlil qilish, ularning tuzilishi va munosabatlarini aniqlash uchun qo'llanilgan.

⁴ Goldsmith, J., & Wu, T. (2006). Who Controls the Internet? Illusions of a Borderless World. Oxford University Press. 226 p.

⁵ Drezner, D. W. (2007). All Politics Is Global: Explaining International Regulatory Regimes. Princeton University Press. 264 p.

⁶ Toshmatov, N. A. (2021). O'zbekistonda axborot huquqining shakllanishi va rivojlanishi. Toshkent: TDIU nashri. 312 b.

Statistik-empirik metod - O'zbekistondagi internet foydalanuvchilari soni, axborot jinoyatlari statistikasi va qonunchilik islohotlari ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun foydalanilgan.

Ekspert baholash metodi - O'zbekiston, Qozog'iston va Gruziya yuristlari bilan 18 ta chuqur intervyu o'tkazildi (2023-2024). Respondentlar mahkamalar, universitetlar va huquq himoya organlari vakillaridan iborat edi.

Xalqaro standartlarning tasnifi

Axborot faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro standartlarni uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh - BMT tizimidagi hujjatlar. Bular orasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasi (ifoda erkinligi), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 19-moddasi, BMT Bosh Assambleyasining A/HRC/20/L.13 rezolyutsiyasi (Internet erkinligi) va A/RES/56/183 rezolyutsiyasi (Axborot jamiyati to'g'risida Butunjahon sammiti) alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi guruh - mintaqaviy tashkilotlar hujjatlari. Yevropa Kengashining kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Budapesht konvensiyasi (2001), Yevropa Inson huquqlari konvensiyasining 10-moddasi, GDPR (2016/679), shuningdek MDH doirasidagi axborot xavfsizligi to'g'risidagi bitimlar ushbu guruhga kiradi.

Uchinchi guruh - texnik-me'yoriy standartlar. Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) standartlari, IETF (Internet Engineering Task Force) texnik standartlari, ICANN tomonidan ishlab chiqilgan domen boshqaruvi qoidalari va ISO/IEC 27001 axborot xavfsizligi standarti bunga kiradi.

O'zbekiston qonunchiligining tahlili

O'zbekiston Respublikasining axborot sohasidagi asosiy qonunchilik bazasi quyidagilardan iborat: "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun (2003), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun (2007), "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun (2019), "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun (2004).

Tahlil natijasida quyidagi musbat tendentsiyalar aniqlandi: birinchidan, O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib kiberjurisdiksiya masalasini alohida qonun darajasida tartibga soldi; ikkinchidan, 2019-yilgi shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonun GDPR tamoyillaridan ilhomlangan; uchinchidan, raqamli islohotlar doirasida qonunchilik bazasi muntazam yangilanib bormoqda.

Implementatsiyaning muammoli jihatlari

Qiyosiy tahlil natijalari implementatsiyada to'rtta asosiy muammo guruhini ko'rsatdi:

1. Normativ tafovutlar. GDPR reglamenti ma'lumotlar sub'ektiga o'chirish huquqi beradi. O'zbekiston qonunida bu huquq mavjud, lekin uni amalga oshirish mexanizmi noaniq. Shuningdek, ma'lumotlarni uchinchi mamlakatga uzatish shartlari xalqaro me'yorlardan farq qiladi.

2. Institutsional imkoniyatlar. Axborot xavfsizligi agentligi (AXA) qonunchilikni bajarishni nazorat qiladi, lekin resurslar va ekspert imkoniyatlari cheklangan. Solishtirganda, Frantsiyaning CNIL organi 1000 dan ortiq xodimga ega, O'zbekiston AXAsida esa bu ko'rsatkich ancha past.

3. Texnik standartlar. Milliy texnik standartlar xalqaro ISO/IEC standartlari bilan to'liq mos kelmaydi. Ayniqsa, kriptografik algoritmlarga qo'yiladigan talablar sohasida farqlar seziladi.

4. Raqamli suverenitet va erkin axborot aylanishi ziddiyati. Ma'lumotlarni lokalizatsiya qilish talablari (milliy serverda saqlash) xalqaro erkin axborot aylanishi tamoyili bilan ziddiyat tug'dirmoqda. Bu holat O'zbekistonning xalqaro raqamli iqtisodiyotga integratsiyasini qiyinlashtirmoqda.

Implementatsiyaning yaxshi amaliyotlari

Taqqoslash ob'ektlari sifatida tanlangan davlatlar tajribasi implementatsiyaning turli modellarini ko'rsatadi. Estoniya to'liq raqamli davlat konsepsiyasini joriy etib, xalqaro standartlarni ilk qabul qiluvchi davlatga aylangan. Gruziya esa EU-Georgia assotsiatsiya shartnomasi doirasida GDPR normalarini qisqa muddatda (2016-2020) muvaffaqiyatli implementatsiya qilgan. Janubiy Koreya ICT sohasidagi milliy strategiyani xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirgan holda "yuqoridan pastga" implementatsiya modelini amalga oshirgan.

Ushbu davlatlarning umumiy xususiyatlari: siyosiy irodaning kuchliligi, markazlashtirilgan koordinatsiya, texnik ekspertizani rivojlantirish uchun investitsiya va fuqarolik jamiyatini jarayonga jalb qilish.

O'zbekiston uchun implementatsiya modeli

Tahlil natijalari asosida O'zbekiston uchun uch bosqichli implementatsiya modeli taklif etiladi:

I bosqich (2024-2025): Normativ-huquqiy asosni mustahkamlash. Bu bosqichda shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunga GDPR talablari bilan uyg'un o'zgartishlar kiritish, mustaqil ma'lumotlarni himoya qilish organi tuzish va Budapesht konventsiyasiga qo'shilishni ko'rib chiqish lozim.

II bosqich (2025-2027): Institutsional salohiyatni oshirish. Bu bosqichda AXA qoshida ixtisoslashgan bo'linmalar tashkil etish, xalqaro tashkilotlar bilan texnik yordam shartnomalari tuzish va yurist-texnologlar tayyorlash dasturini joriy etish ko'zda tutiladi.

III bosqich (2027-2030): To'liq integratsiya. Bu bosqichda milliy va xalqaro standartlarning qiyosiy monitoringini yo'lga qo'yish, mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish va axborot erkinligi indeksida reytingni yaxshilash uchun izchil chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

XULOSA

Birinchidan, xalqaro standartlar internetda axborot faoliyatini tartibga solishda universal doiraviy asos bo'lib xizmat qiladi, lekin ularning milliy qonunchilikka implementatsiyasi avtomatik jarayon emas - bu maqsadli siyosat, institutsional investitsiya va muntazam monitoring talab etadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston so'nggi yillarda axborot huquqi sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan.

Uchinchidan, implementatsiyaning asosiy to'siqlari sifatida normativ tafovutlar, institutsional imkoniyatlarning chegaralanganligi, texnik standartlar uyg'unligi va raqamli suverenitet bilan erkin axborot aylanishi o'rtasidagi ziddiyat aniqlanadi.

To'rtinchidan, taklif etilgan uch bosqichli model O'zbekistonning o'ziga xos siyosiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, amaliy amalga oshirishga tayyor.

Kelgusida tadqiqotning sun'iy intellekt boshqaruviga oid xalqaro standartlar, blokchain texnologiyalari huquqi va kvant kriptografiyasi sohasini qamrab olishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasi, 217 A (III)-son qaror, 1948-yil 10-dekabr.
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. BMT Bosh Assambleyasi, 2200 A (XXI)-son qaror, 1966-yil 16-dekabr. Kuchga kirgan: 1976-yil 23-mart.
3. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data (GDPR). Official Journal of the European Union, L 119, 4 May 2016. Pp. 1-88.
4. Drezner, D. W. (2007). All Politics Is Global: Explaining International Regulatory Regimes. Princeton University Press. 264 p.
5. Toshmatov.N.A (2021). O'zbekistonda axborot huquqining shakillanishi va rivojlanishi. Toshkent: TDIU nashri. 312 b.
6. Goldsmith, J., & Wu, T. (2006). Who Controls the Internet? Illusions of a Borderless World. Oxford University Press. 226 p.